



“HAMKORLIK ZANJIRI” ASOSIDA TALABA-YOSHLARDA VATANPARVARLIK TUYG’USINI SHAKLLANTIRISHNING O’ZIGA XOS PEDAGOGIK JIHATLARI

Xolboyev A.M.

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: yoshlar, vatanparvarlik, dunyoqarash, milliy ruh, milliy qadriyatlar, global axborot oqimlari, muqaddas burch, ta’lim, tarbiya, xalq, millat, mafkura, maqsad.

Ключевые слова: молодежь, патриотизм, мировоззрение, национальный дух, национальные ценности, глобальные информационные потоки, священный долг, образование, воспитание, народ, нация, идеология, предназначение.

Key words: youth, patriotism, worldview, national spirit, national values, global information flows, sacred duty, education, upbringing, people, nation, ideology, purpose.

Резюме: Mazkur maqolada zamonaviy talablarni inobatga olingan holda talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirishning o’ziga xos pedagogik jihatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ma’naviy tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda “Hamkorlik zanjiri” imkoniyatlaridan foydalanish masalalari muallif tajribalari asosida yoritib berilgan.

Резюме: В данной статье с учетом современных требований с научной и теоретической точки зрения анализируются уникальные педагогические аспекты формирования патриотизма у студентов. Также в статье на основе опыта автора освещены вопросы использования возможностей «Цепи сотрудничества» для повышения эффективности духовно-просветительской работы по воспитанию молодежи в духе патриотизма.

Summary: This article, taking into account modern requirements, analyzes the unique pedagogical aspects of the formation of patriotism among students from a scientific and theoretical point of view. Also, the article, based on the author’s experience, highlights the issues of using the capabilities of the “Chain of Cooperation” to increase the effectiveness of spiritual and educational work to educate young people in the spirit of patriotism.

Har qanday millat, har qanday xalq bor ekan, uning o’z manfaatlari, o’z maqsad va orzu-idealariga ega bo’lishi tabiiy. Ana shu orzu-umidlar va maqsadlarni ifoda etadigan, ularni ruyobga chiqarish uchun xalqni safarbar qiladigan vatanparvarlik g’oyalari xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-ideallarini, olijanob maqsad-muddaolarini o’zida mujassam etadi.[11]

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda unutilmas qadriyatlarimiz, xalq og'zaki ijodi (fol'klorshunoslik, musiqa, rassomlik), adabiyot va san'atning bir qator turlariga qiziqishlarini oshirish, qobiliyatlarini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratish, ma'naviy axloqiy tarbiyaning innovatsion mexanizm va vositalarini aniqlashga muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" nomli kitobida ham yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaffi va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish kabi masalalarga alohida urg'u berib o'tilgan. [1]

Alohida e'tirof etib o'tish lozimki, mamlakatimizda global axborot oqimlarining jadallashuvi yoshlar ongi va qalbida ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini singdirish, inson manfaatlarini eng oliy va ustuvor qadriyat sifatida qaror toptirish, ma'naviyatimiz va amaliy hayotimizda ro'y berayotgan mafkuraviy jarayonlarda sobit g'oyaga va mustahkam qarashlarga ega bo'lgan "Yangilanayotgan O'zbekiston" yoshlarida mustaqil fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning yangi modellarini ishlab chiqish, an'anaviy va innovatsion ta'lim tizimlarining maqbul integratsiyasini ta'minlashning pedagogik mexanizmlarini rivojlantirishning tashkiliy-metodik tizimini takomillashtirishga doir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Globallashtirish davri o'ta shiddat bilan o'zgarayotgani va turli tahdidlar ko'pligi, geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvi, xalqaro aloqalarda o'zaro ishonch va hamkorlik munosabatlariga putur etishiga, qarama-qarshilik va nosog'lom raqobat kuchayishiga olib kelayotgani ijtimoiy pedagogika oldida hal etishni kechiktirib bo'lmaydigan g'oyat murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Shu sababli «Ta'lim va ma'rifat - tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l» g'oyasiga tayanib turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. [1]

Fikrimizcha, «Hamkorlik zanjiri» asosida vatanparvarlik tuyg'usini takomillashtirish afzalligi shundaki, talaba-yoshlarni xalqimizning urf-odatlarini va an'analari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy jarayondagi



o'zgarishlarni anglashga, hozirgi globallashuv jarayonida o'ziga to'g'ri yo'l tanlashga, xushyorlikka o'rgatadi.

Hech kimga sir emaski, Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-yoshlar orasida ham bilib bilmay diniy aqidaparastlik ko'rinishidagi g'oyalar bilan sug'orilayotgan, xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog'i: "Facebook", "Odnoklassniki.ru", "Telegram", "Mail.ru" «Twitter», «Facebook», «Odnoklassniki», «YouTube» kabi ijtimoiy tarmoqlardagi yoshlar kamoloti uchun yot bo'lgan turli illatlardan, "onlayn" tanishuvlardagi muloqot, zararli ta'sirlar girdobiga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Haqiqatdan ham yoshlar ma'naviy tarbiyasida yadro maydonlari emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar, zamonaviy xalqaro axborot maydonidagi mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion tahdid kuchayib borayotgan bir paytda Vatan tuyg'usini yoshlar ongiga singdirish, xalq og'zaki ijodi asosida yoshlarni g'oyaviy xurujlardan asrash, ularda hayotga ongli munosabatni shakllantirish zarur.

Shundan kelib chiqib zamonaviy talablarni inobatga olingan holda talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda burok allomalarimiz ilmiy merosidan foydalanish muhim ijtimoiy pedagogik ahamiyatga ega. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!". [9]

Adabiyotlar tahlilidan bilamizki, vatanparvarlik - bu kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "Vatanparvarlik" so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: "Vatan g'amxo'rlik qiluvchi. O'z vatanini, ona yurtini xalqini cheksiz sevuvchi, Vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko'rsatuvchi" 2. "Vatanparvarlik" vatanparvarlarga xos ish, hatti-harakat, xislat.

Tabiiyki, inson uchun kindik qoni to'kilgan joy hamma narsadan aziz va qimmatlidir. Rasuli Akram sallolohu alayhi vasallam Madinai munavvaraga hijrat qilib ketayotganlarida tug'ilib o'sgan vatani Makkai mukarramaga yuzlanib turib: "Agar qavmim meni chiqib ketishga majbur qilmaganida, hech ham o'z ixtiyorim bilan uni tashlab ketmagan bo'lur edim", deganlari siyrati nabaviya kitoblarida bayon etilgan. [3]

Demak, Vatanni sevish, vatanparvar bo'lish, undagi bor narsalarni ardoqlab, sog'inib yashash insoniyat tabiatida mavjud bo'lgan nozik his-tuyg'udir.

Buyuk alloma Alisher Navoiy hazratlarining quyidagi so'zi ona-Vatanini sevuvchi sadoqatli har bir kishining qalbida g'ayrat va shijoat uyg'otadi:

Vatan tarkini bir nafas aylama,

Ani ranji – g'urbat, havas aylama. [4]

Donolar aytadilar: “Kishining vafodorligi va sadoqati uning o'z Vatani uchun qayg'urishidan, do'stlarini sog'inishidan va umrining zoe ketkazgan lahzalariga achinib, o'kinib yashashidan bilinadi”. Insonning o'z xalqiga bo'lgan sadoqati va fidoiyligi ona-Vatanni himoya qilishi, taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo'lishi hamda xalqining tinch va farovon hayot kechirishiga imkon darajada hissa qo'shishi bilan o'lchanadi.

Talaba – yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash zamirida Vatanimiz mustaqilligini, uning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash har bir o'g'il-qizning burchi va vazifasi ekanligini uqtirish lozim. Tarixdan ma'lumki, yurtimiz boshiga og'ir sinovli kunlar tushganda uning ozodligi, osoyishtaligini himoya qilishga qodir mard farzandlar ko'kragini qalqon qilib yovga qarshi chiqqan. To'maris, Spitamen, Muqanna, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi dovyurak, jasur, vatanparvar buyuk sarkardalarning nomlari va jasoratlari tillarda dostonga aylangan. Asrlar o'tsa-da, yosh avlod ularning qahramonliklari xalqimiz qalbida mangu yashashini, har bir vatandoshimiz uchun o'rnak bo'lib xizmat qilganligini bilishi zarur. [6]

Fikrimizcha, “Hamkorlik zanjiri” asosida talaba-yoshlarda vatanparvarlik ruhini singdirish, ularda tarixidan to'la xabardor bo'lish, milliy mansublik, millatning o'tmishi, tarixining o'ziga xosligiga oid ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Zero o'z xalqi tarixini anglamagan inson o'zining jamiyatdagi o'zni, turli millatlar orasidagi mavqegini belgilay olmaydi. Ijtimoiy mavqega ega bo'lmagan inson esa mustaqil fikrlay, turli vaziyatlarda o'zi qaror qabul qila olmaydi. Shu sababli u bilib bilmay “noto'g'ri aqidalar girdobiga” tushib qoladi.

Shuningdek, «Hamkorlik zanjiri» asosida talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yana bir muhim jihati Vatan ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qilish hissini tarkib toptirishdan iboratdir. Talaba-yoshlarimiz qaysi yo'nalishda tahsil olishidan, faoliyat ioritishidan qat'iy nazar o'zining fuqarolik burchini to'liq anglagan holda, ma'naviy kamoloti uchun mas'uliyatni his etishi, shaxsiy manfaatlarini shu iort, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashi lozim. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va



jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi", deya bu jarayonga yuksak baho bergan edi. [11]

Ilmiy izlanishlarimiz davomida talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash jarayonida quyidagi sifatlarni takomillashtirish mumkinligi ko'zga tashlanadi:

- 1) xalqining tarixiy xotirasiga hurmat;
- 2) millatning ijtimoiy-ma'naviy hayoti, milliy merosi, urf-odat va an'analari, qadriyatlari, ruhiyati haqidagi mustahkam bilimlarga ega bo'lish;
- 3) xalq ijtimoiy-ma'naviy hayotini yanada rivojlantirish, milliy meros, urf-odat va an'analari, qadriyatlarni asrab-avaylash, uni boyitish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish;
- 4) ularni ongli ravishda baholash;
- 5) ma'naviy his-tuyg'ularning ijobiy bo'lishiga erishish;
- 6) o'zini ongli ravishda boshqarish;
- 7) Vatan tuyg'usi bilan yashash, uning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish;
- 8) ona tilini e'zozlash;
- 9) boshqa millatlarni hurmat qilish, ularning madaniyati va milliy qadriyatlariga ongli yondashish [8]

Ilmiy mulohazalarimizni mantiqan davom ettirib, biz "vatanparvarlik tarbiyasi"ning o'zagi bo'lgan talaba - yoshlarda vatan tuyg'usini qalban anglash asosida namoyon bo'luvchi xislatlarni quyidagicha tasnif etdik. Millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlarini va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oyani yoshlar ongiga singdirish zamirida :

1) millatning tarixi, qadriyatlari, an'analari, madaniyati, yashash tarzida yaqqol namoyon bo'ladigan, ajdodlari bosib o'tgan tarixiy yo'ldan to'la xabardor bo'lgan holda, millatning o'tmishi, tarixiga hurmat, millatidan faxrlanish tuyg'usini hosil qilish;

2) "xalq donoligi" asosida bizgacha etib kelgan tarixiy merosni, kelajak avlodga to'la to'kis etkazish, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy o'zgarishlar davrida ham millatning ma'naviy-axloqiy qarashlari, e'tiqodidan voz kechmaganligidan g'ururlanish;

3) milliy g'oyada umuminsoniy mohiyat mavjud bo'lib, millatga xos bo'lgan ijtimoiy ruhiyat, uning ijobiy ko'rinishlari va milliy urf-odat va an'analarning, o'zbekona turmush tarzining o'ziga xosligidan faxrlanish;

4) «Manfaatli hamkorlik» g'oyasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun birdek ahamiyatli ekanligini anglash;

5) xalq yoki millat qadriyatlarining muayyan tartibda: milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning mazmunini chuqur anglagan holda ularni asrash va yanada boyitish yo'lida sinergetik yondashish;

6) shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini aiglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon iivilizaniyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini uyg'otish;

7) millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish;

8) o'z millatining moddiy, ma'naviy merosini asrab-avaylash;

9) xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarni hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o'z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatla namoyon qilish, ona tilining millat nishoni, g'ururi ekanligini his qilish;

10) xalq, Vatan, ajdodlar xotirasi oldidagi mas'uliyatni his qilish.

Xulosaqilibaytganda, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini takomillashtirishda ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan quyidagi vazifalarni amalga oshirishga erishish maqsadga muvofiqdir:

- talabalar ma'naviy - axloqiy tafakkurini xalq og'zaki ijodi va Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosiga asoslangan vidiotasvirlar vositasida shakllantirish;

- mamlakatimizda shakllanayotgan yangicha tafakkur va dunyoqarashning ma'no-mazmunini, xalqimizning istiqloqlga erishish jarayoni, O'zbekiston tanlab olgan milliy taraqqiyot modelining mohiyati, uni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayoniga xos qonuniyatlar va xususiyatlarni chuqur falsafiy tahlil qilish, yosh avlodning qalbi va ongiga milliy istiqloql g'oyalarini, vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini singdirilgan ta'limot bilan boyitilgan o'quv tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish;

- talaba-yoshlar mafkuraviy immunitetini boyitish, turli hayotiy vaziyatlar yuzasidan tez va samarali qaror chiqara olish;

- talabalarni o'z bilimi, o'z kuchi, o'z sadoqatini ayamadan Vatani ravnaqi uchun hissa qo'sha olishga tayyorlash;

- yurtimiz tinchligi, vatanimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligi yo'lida faol xizmat qiladigan, kim uchun va nima uchun yashayotganini yaxshi anglaydigan, ertangi kunimizni yanada yuksaltirishga mustahkam zamin yaratish, boshlangan buyuk ishlarni davom ettirishga qurbi yetadigan, hech kimdan kam bo'lmasdan hayotga kirib kelayotgan yetuk va barkamol, mustaqil fikrlaydigan yangi avlodni kamol toptirish;



- talaba-yoshlarda o'z xalqining tarixiy, madaniy, milliy xususiyatlarini anglab olishga bo'lgan ehtiyojni tarkib toptirish;
- globallashuv va texnologiya tsivilizatsiya sharoitida talabalarni axborot xavfsizligi talablarini anglab etishga yo'llash;
- globallashib borayotgan bugungi dunyoda ongli yashaydigan, siyosiy, huquqiy va ma'naviy saviyasi tobora o'sib borayotgan, o'z kelajagini aniq tasavvur etadigan, milliy manfaatlarimiz va jamiyatimiz xavfsizligini ta'minlash zarurligini yaxshi anglaydigan, xalqimiz hayotining osoyishtaligi va barqarorligini asrab-avaylaydigan yoshlarni tarbiyalashda "Uzluksiz ta'lim-oila va mahalla"ning roli muhimligini hisobga olish.

ADABIYOTLAR:

1. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz / Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 592 b.
2. Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: "SHarq",1998.
3. Al-Buxoriy, Abu Alloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. 4 kitob. 1-K. Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to'plam) (arabchadan Z.Ismoil tarj.). – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991. – 56 b.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 7-tom. "Xamsa", ("Hayrat ul-abror"), -T., Fan, 1991, - 390 b
5. Al-Moturudiy ta'limoti va uning Sharq xalqlari madaniyatidagi o'rni. Ma'ruzalar to'plami. -T.: 2000. -115 b.
6. Abdumannotov E.A. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlik tuyg'usini takomillashtirish. (Umumta'lim maktabining 5-9-sinf o'quvchilari misolida)
7. Aminov B., Rasulov T. Vatan - iorakdagi javohir. - T.: O'qituvchi, 2001. – 232 b.
8. Mamashokirov S, A.O'tamurodov, E.R.Qodirova, M.Ortiqov, SH.Tog'aeV, O.Muxammadiyeva. Milliy taraqqiyotning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari.O'quv qo'llanma T.: 2010. -42 b
9. Mamatqulov A. A. O'quvchi- yoshlar o'rtasida internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish. Zamonaviy ta'lim / sovremennoe obrazovanie 2020, 6 (91)
10. Ibragimov X. I., Yo'ldoshev U.A., Bobomirzaev X. Pedagogik psixologiya. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007. – 410 b.
11. <https://www.elib.buxdu.uz/i>